

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

4-2023

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

O.T.Tursunov, F.R.Holboev	
Qashqadaryo viloyatining aholi zich joylashgan hududlarida tarqalgan <i>Rodentia</i> turkumi vakillarining ekologik holati.....	117
B.M.Sheraliyev, D.E.Urmonova, O.S.Azamov	
<i>Cottus spinulosus</i> kessler, 1872 (Teleostei: Cottidae) populyatsiyalari orasidagi genetik farqlanish.....	120
F.N.Xabibullayev, M.M.Yunusov	
Farg'ona vodiysida turli xil genotipdagi asalarilardan to'plangan asalning kimyoviy tarkibi	125
U.I.Obidjanov	
Biologiya o'qitish metodikasi kursi «Hayvonlar» bo'limi” infuzoriya-tufelka” mavzusi bo'yicha laboratoriya ishlarini takomillashtirish	129

GEOGRAFIYA

B.B.Eshquvvatov	
O'rta Zarafshon konusimon yoyilma landshaft komplekslari.....	133
Y.Karimov, Q.Yarashev	
Sirdaryo viloyatida tuproq sho'rliги sizot suvlari sathi va minerallashuvio'zgarishini o'rganish usullari	139
R.T.Pirnazarov	
To'g'onli ko'llar va ularning genezisi haqida.....	144

ILMIY AXBOROT

M.M.Xolmatova	
Talabalarda gigiyenik madaniyatini rivojlantirishning nazariy-metodologik asoslari.....	150
R.R.Mamatov	
Gerta Myuller asarlarining badiiy xususiyatlari	156
R.U.Abdullazizova	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida olam rangli-lisoniy manzarasini shakllantirishning samaradorligi	156
R.U.Abdullazizova	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida olam rangli-lisoniy manzarasini shakllantirishning samaradorligi	159
A.A.Mirzayev	
Ibn Arabiyoning tasavvufiy-irfoniy qarashlarida “Vahdat ul-vujud” konsepsiysi tahlili	163
L.K.Karshibayeva, H.E.Egamqulov	
Sirdaryo viloyatining demografik vaziyati va uning geografik jihatlari.....	166
A.A.Yo'idoshev	
O'zbekistonda ta'lif-tarbiya sohasidagi islohotlar strategiyasi.....	171
S.Kunduzaliyeva	
Dars jarayonlarida mediyata'lidan foydalanishning ahamiyati	174
N.R.Eshchanova	
Nafs tarbiyasida tasavvuf ilmining ahamiyati	178
M.B.Radjabova	
O'zbekistonda turar-joy masalasining tarixiy-huquqiy asoslari va davlat tomonidan tartibga solinish asoslari	182
S.Isroiljonov, V.A.Karimov	
Talabalarni jismoniy salomatlik ahvolini darajasi	186
D.I.Umirzakova	
Bo'lajak xorijiy til o'qituvchilarining tolerantlik tafakkurini “Yumshoq ko'nikmalar” asosida rivojlantirish mazmuni	190
K.N.Murodov	
Sport kurashida sportchilarining kuch chidamliligini rivojlantirish va musobaqa faoliyati samaradorligini oshirish texnologiyasi	196
Q.Sh.Omonov, N.A.Abdullayeva	
Oziq-ovqat mahsulotlarini kishi sog'ligiga ta'siri aks etgan maqollarning lingvomadaniy tahlili	203
Sh.N.Nurova	
Ibn Sino ta'lifotida inson masalasi va insoniy xislatlar to'g'risida	206
Z.N.Usmonov	
Sog'lom bo'lish uchun och qolish	209

O'ZBEKİSTONDA TA'LIM-TARBIYA SOHASIDAGI ISLOHOTLAR STRATEGIYASI**СТРАТЕГИЯ РЕФОРМ В ОБЛАСТИ ОБРАЗОВАНИЯ В УЗБЕКИСТАНЕ****STRATEGY OF REFORMS IN THE FIELD OF EDUCATION IN UZBEKISTAN****Yo'Idoshev Avazbek Abdurashid o'g'li¹****¹Yo'Idoshev Avazbek Abdurashid o'g'li**

— Chirchiq davlat pedagogika universiteti Gumanitar fanlar fakulteti, Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi kafedra o'qituvchisi

Annotatsiya

Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasida ta'lim tizimi va unda o'tkazilayotgan va o'tkazilishi rejalashtirilayotgan islohotlar hamda ta'limga oid qonun va strategiyalar ko'rib chiqilgan.

Аннотация

This article examines the education system in the Republic of Uzbekistan, ongoing and planned reforms, and education-related laws and policies.

Abstract

This article examines the education system in the Republic of Uzbekistan and the ongoing and planned reforms, as well as laws and strategies related to education.

Kalit so'zlar: Maktabgacha ta'lim, o'rta ta'lim, o'rta maxsus va professional ta'lim, olyi ta'lim, ta'lim strategiyasi, ta'lim to'g'risidagi qonunlar, globallashuv, murojaatnoma, ilm-fan, integratsiya, innovatsiya.

Ключевые слова: дошкольное образование, среднее образование, среднее специальное и профессиональное образование, высшее образование, образовательная стратегия, законы об образовании, глобализация, ссылка, наука, интеграция, инновации.

Key words: Pre-school education, secondary education, secondary special and professional education, higher education, educational strategy, laws on education, globalization, reference , science, integration, innovation.

KIRISH

O'rta Osiyo, xususan, yurtimiz azal-azaldan ilm-marifat o'chog'i jahon sivilizatsiyasi markazlaridan biri deb e'tirof etib kelingan. O'rta asrlardan xalqimiz ta'lim sohasida yuksak marralarga erishgan bo'lib, umumjahon madanyatida o'z o'rniga ega xalq sifatida fan sohasiga ulkan hissa qo'shishgan.

Misol tariqasida IX-XII asrlarda Mavarounnahrda ko'plab o'quv maskanlari bo'lib, ulardan chinakam olimlar, ulamolar yetishib chiqqan. Xususan, Xorazm Ma'mun akademysi ham shu davrda yirik tadqiqot markazlaridan biri hisoblangan.

NATIJA VA MUHOKAMA

XXI asrga kelib Yangi O'zbekiston hayotining barcha sohalari chuqur islohotlar maydoniga aylandi. Bu jarayonda ijtimoiy sohaning asosi hisoblangan ta'lim-tarbiya tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar ko'zga korinarlar darajada odimlamoqda.

Ta'lim-tarbiya jarayonida nafaqat fundamental bilimlar, balki insoniylikning turli qirralari o'rgatiladi. Shu bois, Sharqda ta'lim bilan tarbiya tushunchasi nutqda ham, amalda ham doimo birga ishlataligan. Ikkisini barobar olib borish, uyg'unlashtirish hamma davrlarda dolzarb masala bo'lib kelgan. Bugun ham ijtimoiy sohaning asosi hisoblangan o'qtish tizimidagi o'zgarishlar ilm-fan, ta'lim-tarbiyaga aloqador muammolarni aniqlash, ommaga yetkazishni davrning o'zi talab etmoqda[6].

Zotan, yoshlarning ongu tafakkurini ma'rifat asosida shakllantirish va tarbiyalashni eng muhim vazifaga aylantirish masalasi yangi tahrirdagi "Ta'lim to'g'risida"gi qonunimizda ham aks etgan. Chunki yurtimizni taraqqiyotning yangi bosqichiga olib chiqish, barcha kuch-g'ayratni birlashtirish va fidokorona mehnat qilish orqali Yangi O'zbekistonni, pirovardida, Uchinchi Renessans poydevorini bunyod etish mumkin[5].

Avvalo, o'zgarishlarni eng kichik avloddan boshlab tarbiyalashni boshlash kerak ekani isboti o'laroq maktabgacha ta'lim va tarbiya sohasidan boshlanib ko'plab o'zgarishlar bo'layotgani barchamizga ayyon.

Hozirgi globallashuv jarayonida bolalar tarbiyasida asosiy bo'g'in hisoblangan maktabgacha ta'lif tizimining ahamiyati jamiyatimiz hayotidagi o'rni beqiyos ekanligi. Shuningdek, bugun yirik shaharlarimizdan tortib, chekka tuman shaharlar, qishloq va ovullarimizda yangi-yangi zamonaviy bog'chalar barpo etilmoqda. Shu o'rinda Prezidentimizning Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga murojaatnomasida takidlanguanidek, "qisqa vaqt, ya'ni 6 yil ichida Respublikamizda bog'cha yoshidagi bolalarni qamrab olish darajasi 27 foizdan 70 foizga yetishi natijasida 2 milionga yaqin bola bog'chaga bormoqda". Shuningdek, "kelgusi 5 yilda maktabgacha ta'lif qamrovini 80 foizga yetkazish va 600 ming yangi bog'cha o'rni kerak" ligi takidlandi.

Yurtimizda so'nggi yillarda o'qtuvchilarining oylik maoshi sezilarli darajada ko'paytirilganligi, davlat mukofotlari bilan taqdirlanayotgan ustozlar soni ortib bormoqda.

Xususan yangi tahrirda qabul qilinayotgan Konstitutsiyamizga pedagog hodimlar maqomi to'g'risidagi bandlarning kiritilayotgani. Ma'muriy va Jinoi javobgarlik to'g'risidagi kodeksga alohida band kiritilishi hamda o'qtuvchilar maqomiga doir qonun loyihalarining e'lon qilinishi ko'p bora takidlab o'tilayotgani ham ta'lifning bu bosqichida ulkan ijobjiy o'zgarishlarga zamin yaratilayotgani va yangi islohatlar davri boshlanayotganidan dalolat beradi.

Ushbu yilda tegishli davlat dasturlari asosida 791 ta va "Ochiq byudjet" platformasi orqali 873 ta umumta'lif maktabida qurilish-ta'mirlash ishlari bajarilib, 120 mingdan ortiq o'quvchi o'rni yaratildi. Oxirgi to'rt yilda 166 ta maktab binosi qurildi, 2 ming 433 ta maktab binosi rekonstruksiya qilindi va ta'mirlandi. Mazkur ta'lif muassasalaridagi 1 ming 965 ta zamonaviy kompyuter sinfxonasiga xalqaro moliya institutlari hamda davlat byudjeti mablag'lari hisobidan 26 ming dona kompyuter jamlanmasi yetkazildi[1].

Yangi O'zbekistonni "ijtimoiy davlat" tamoyili asosida barpo etishning dastlabki sharti sifatlari ta'lif ekani va eng katta investitsiya, avvalo, ta'lifni qo'llab-quvvatlashga yo'naltirilishi lozimligi, shu maqsadda kelgusi 2023-yildan boshlab maktab ta'lifini xalqaro ta'lif dasturlari asosida butunlay isloh qilish boshlanishi aytildi[1].

Jumladan, Qoraqalpog'iston Respublikasi, Toshkent shahri va viloyatlardan tanlab olingen bittadan — jami 14 maktabda xalqaro ta'lif tizimini tajriba-sinov tariqasida joriy etish ishlari jadal olib borish;

Xususan, 2023-yilda yurtimizda 70 ta yangi maktab binosi quriladi va ular zamonaviy o'quv jihozlari hamda qo'shimcha mebellar bilan ta'minlanishi;

Mavjud 460 ta umumta'lif maktabida yangi o'quv binolari qad rostlashi sohada chuqur islohatlar amalga oshirilishining yaqqol dalili bo'ladi.

Ijtimoiy, ishlab chiqarish, sanoat, qishloq xo'jaligi va ta'lif-tarbiya sohasida amalga oshirilayotgan islohotlarni ta'lif tizimiga kadrlar yetkazib beruvchi o'rta va professional ta'lif hamda oliy ta'lif tizimisiz tasavvur qilib bo'lmaydi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lif tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish Kontseptsiyasi[4] mazkur sohadagi yangi islohotlar uchun katta yo'nalish vazifasini bajarib beradi.

Shu ma'noda O'zbekistonni 2030-yilga qadar global innovatsion indeks reytingida dunyoning 50 ta yetakchi davlatlari qatoriga kiritish bo'yicha ulkan maqsadga erishishda inson kapitalini rivojlantirishga qaratilgan strategik reja e'lon qilindi[3].

Ushbu hujjatga intellektual taraqqiyotni jadallashtirish, raqobatbardosh kadrlar tayyorlash, ilmiy va innovatsion faoliyatni samarali tashkil etish hamda xalqaro hamkorlikni mustahkamlash maqsadida fan, ta'lif va ishlab chiqarish integratsiyasini rivojlantirish singari vazifalar asos qilib olindi.

Bugungi kunda yangi-yangi oliy o'quv yurtlari, dunyodagi yetakchi universitetlarning filiallari tashkil etilmoqda. Misol uchun, so'nggi 6 yilda mamlakatimizda ko'plab yangi davlat va nodavlat oliy ta'lif muassasasi, jumladan, xorijiy universitetlarning filiallari tashkil etilib, oliy o'quv yurtlarining soni 198 taga yetdi[1].

Davlat-xususiy sheriklik tizimi asosida nodavlat oliy ta'lif muassasalari faoliyati yo'lga qo'yilmoqda. Aholi fikrini o'rgangan holda, ta'lifning sirtqi, kechki va masofaviy shakllari qayta tiklandi, qabul kvotalari oshirilib maktab bitiruvchilarini oliy ta'limga qamrab olish darajasi 2016-yilgi 9 foizdan 2022-yilda 38 foizga yetdi.

ILMIY AXBOROT

Shuningdek, Top 500 oliygojni tamomlagan yosh mutaxassislar uchun qo'shimcha ustamalar joriy qilingan. Davlat organlari, tashkilot va muassasalarida ishlayotgan, nufuzli xalqaro reyting tashkilotlarining yuqori 500 talik ro'yxatiga kiritilgan xorijiy OTMllarini tamomlagan yoki ularda ilmiy daraja (PhD va unga tenglashtirilgan boshqa ilmiy daraja) olgan yosh mutaxassislarning lavozim maoshiga qo'shimcha ustamalar to'lab berilishi belgilangan[2].

Professor-o'qituvchilarning xorijdagi oliy ta'lif hamda ilmiy-tadqiqot maskanlarida malaka oshirishi va stajirovka o'tashini ta'minlaydigan mexanizm yaratildi. Ularning oylik ish haqi miqdori 2018-yilga nisbatan o'ttacha 2,5 barobar oshirildi. 2023-yilda olimlarning ish haqqi ham 4.5 barobarga oshirilishi takidlab o'tildi.

XULOSA

Prezidentimiz tashabbusi bilan oliy ta'lif tashkilotlari uchun akademik va tashkiliy, shuningdek, moliyaviy mustaqillikning berilishi hamda Kengashlar vakolatlarining kengayotgani ta'lif sohasidagi davlat siyosatini amalga oshirish, sifatlari ta'lif xizmatlarini ta'minlash va bu borada hukumatimiz tomonidan berilgan vazifalarni to'la-to'kis ado etish orqali mamlakatimiz taraqqiyotini belgilab beruvchi salohiyatlari kadrlar tayyorlashga keng imkoniyatlar yaratilmoqda.

Shu boisdan yurtimizda yoshlarning sifatlari ta'lif olishi va kelgusida barkamol avlod bo'lib yetishishini ta'minlashda ta'lifi tizimida mehnat qilayotgan barcha mutasaddilar zimmasiga katta mas'uliyat yuklaydi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi // 20 dekabr 2022 yil <https://review.uz/uz/post/ozbekiston-respublikasi-prezidenti-shavkat-mirziyoyevning-2023-yil-uchun-murojaatnomasi-tolig-mat>
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 13 iyul 2021 yildagi "Yoshlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash va ularning ijtimoiy faoliigini yanada oshirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-6260-son Farmoni // <https://lex.uz/ru/docs/-5512119>
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 29 oktyabr 2020 yildagi "Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida" PF-6097-son Farmoni // <https://lex.uz/docs/-5073447>
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 8 oktyabr 2019 yildagi "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lif tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5847-son Farmoni // <https://lex.uz/docs/-4545884>
5. Yo'ldoshev A., Ochilov U. (2022). Uyg'onish davri va uchunchi renessans poydevoiri: vorisiylik va o'ziga xoslik // Markaziy osiyo uyg'onish davri ilm-fan va madaniyatini tadqiq etishning dolzarb muammolar: mavzusidagi xalqaro ilmiy anjuman materiallari. –Guliston: Universitet, -B.215-217.
6. Йулдошев. А. Значение Кластерного Подхода В Образовании// Miasto Przyszlosci. 2023.C.48-50
7. В.А. Сластёин и др. Педагогика: учеб. пособие для студ. высш. пед. учеб. Заведений. - М., 2015.
8. G'affarova G.G', Yo'ldoshev A. (2022). Klaster tushunchasining falsafiy mohiyati // International scientific and practical conference "Modern psychology and pedagogy: problems and solutions". – Angliya, 28 mart,-P.322-328.
9. Berkinov O.T. Changes in media cultureand human thinking // Инновации в технологиях и образовании: XV Международная научная конференция. Болгария.,C.16-17.
10. Berkinov O.T. Ijtimoiy tarmoq: yoshlar va "kelajak" // NamDU ilmiy Axborotnomasi, 3-son., B.181-187.
11. Yo'ldashev A. A. Ta'limga e'tibor - kelajakka e'tibor // Barqaror rivojlanishda uzlusiz ta'lif: muammo va yechimlar: xalqaro ilmiy-amalij anjuman ilmiy ishlar to'plami. – Toshkent, B.340-341.